

NETO IQTISODIY SAMARADORLIK

TDIU, Iqtisodiy statistika kafedrasи dotsenti

Akbarova Barno Shuxratovna

TDIU, Raqamli iqtisodiyot va axborot

Texnologiyalari fakulteti

RST-62 guruh talabasi,

Rahimova Sadoqatxon

Annotatsiya: Mazkur maqolada neto iqtisodiy samaradorlik tushunchasi, uni hisoblash usullari va iqtisodiy qarorlar qabul qilishdagi ahamiyati yoritilgan. Tahlil davomida investitsiya loyihalarini baholashda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar — sof joriy qiymat (NPV), ichki daromadlilik normasi (IRR) va diskontlangan to'lovlar davri kabi indikatorlar o'rganiladi. Shuningdek, neto iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda resurslardan samarali foydalanish, xarajatlar va foydalarni solishtirishning roli haqida misollar orqali tushuntirishlar berilgan. Tadqiqot natijalari iqtisodiy samaradorlikni oshirish va strategik rejalshtirishda ushbu ko'rsatkichlardan foydalanishning muhimligini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: Neto foyda, capital qo'yilmalar, riskni baholash, sof joriy qiymat (NPV), ichki daromadlilik normasi (IRR), diskontlash, rentabellik, investitsion portfel.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday xo'jalik yurituvchi subyektning muvaffaqiyatlari faoliyat yuritishi, birinchi navbatda, resurslardan oqilona foydalanish va amalga oshirilayotgan loyihalarning iqtisodiy samaradorligini ta'minlash bilan chambarchas bog'liq. Bugungi kunda investitsiya loyihalarini rejalshtirish va amalga oshirishda ularning neto iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki faqatgina foyda keltiradigan loyihalarni tanlab olish orqali korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlashi va barqaror rivojlanishga erishishi mumkin. Bozor munosabatlarining chuqurlashuvi va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashda

har qanday loyiha yoki faoliyatning **neto iqtisodiy samaradorligini aniqlash** dolzarb masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, **sanoat** va **qishloq xo‘jaligi** tarmoqlarida resurslardan oqilona foydalanish va investitsiyalarning tejamkorligini ta’minlash orqali umumiyligida iqtisodiy o‘sish sur’atlariga erishilmoqda.

2024-yil yakunlariga ko‘ra, **O‘zbekiston sanoatida yalpi ichki mahsulot hajmi 5,6% ga o‘sdi**, bu esa ilgari surilgan sanoatlashtirish siyosati va investitsiya jalb qilish mexanizmlarining samarali yo‘lga qo‘yilganidan dalolat beradi. Jumladan, **sanoat tarmog‘iga yo‘naltirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 11,2 milliard AQSH dollarini** tashkil etdi. Shu bilan birga, energetika, qurilish materiallari ishlab chiqarish va oziq-ovqat sanoatida bir qator yirik loyihamalar ishga tushirildi. **Qishloq xo‘jaligida esa 2024-yilda umumiyligida mahsulot hajmi 3,9% ga o‘sdi**, ayniqsa, mevasabzavot yetishtirish va chorvachilikda yuqori natijalarga erishildi. Ayni vaqtda, tarmoqda resurslar (suv, yer, texnika) samaradorligini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni ko‘tarish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Shunday sharoitda, neto iqtisodiy samaradorlikni aniqlash va baholash orqali investitsiya loyihamalarining haqiqiy foyda keltirish darajasini aniqlash imkoniyati yaratiladi. Bu ko‘rsatkichlar — **sof joriy qiymat (NPV)**, **ichki daromadlilik normasi (IRR)**, **diskontlangan to‘lovlar muddati** kabi indikatorlar asosida aniqlanadi. Ular orqali nafaqat investitsiya loyihamalarining iqtisodiy asosliligi baholanadi, balki ularning moliyaviy barqarorligi, resurs tejamkorligi va foyda olish istiqbollari ham aniqlanadi.

Neto iqtisodiy samaradorlik — bu loyiha yoki faoliyatning barcha xarajat va daromadlarini inobatga olgan holda, umumiyligida foydasini baholash ko‘rsatkichidir. Bu ko‘rsatkich yordamida investitsiya loyihasining rentabelligi, to‘lov qobiliyati, foyda olish imkoniyatlari hamda risk darajasi aniqlanadi. Shuning uchun ushbu mavzuni chuqur o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir. Neto iqtisodiy samaradorlikni tushunish uchun investitsion jarayonlarni chuqur o‘rganish kerak.

Investitsiyalar - bu pul mablag'ları, qimmatli qog'ozlar yoki boshqa moliyaviy aktivlarning foyda yoki boshqa ijobiy natijalarga erishish maqsadida turli faoliyat turlariga qo'yilishi .

Samarador investitsion qarorlar qabul qilish uchun quyidagi omillarni hisobga olish muhim:

- Investitsiyalarning turi (real, moliyaviy, intellektual)
- Sarmoya kiritish muddati (qisqa, o'rta yoki uzoq muddatli)
- Kutilayotgan daromad va risk darajasi
- Loyihaning o'zini oqlash muddati
- Soliq yuki va boshqa majburiy to'lovlar

Xususan, investitsion portfeli diversifikatsiya qilish orqali risklarni kamaytirish va barqaror daromad olish imkoniyati yaratiladi . Buning uchun turli xil aktivlar (aktsiyalar, obligatsiyalar, ko'chmas mulk) va turli sohalarga (neft, IT, qurilish) parallel ravishda sarmoya kiritish tavsiya etiladi.Neto samaradorlikni hisoblashda **soliq yuki** muhim omil hisoblanadi, chunki u korxonaning sof daromadiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Rossiya Federatsiyasining 39-FZ-sonli "Investitsion faoliyat to'g'risida"gi qonunida soliq yuki - bu investitsion loyiha boshlangan kundagi federal soliqlar, sug'urta badallari va boshqa majburiy to'lovlarining hisoblangan umumiy miqdori sifatida ta'riflangan .

Neto iqtisodiy samaradorlik — iqtisodiy faoliyat yoki investitsiya loyihasi natijasida olingan sof foyda va resurslar xarajatlari o'rtasidagi farq asosida baholanuvchi ko'rsatkichdir. Uning asosiylari maqsadi — iqtisodiy resurslar (moliyaviy, moddiy, mehnat va vaqt resurslari)dan eng yuqori natijaga erishish darajasini aniqlashdir.

Brutto, sof va nisbiy samaradorlik bilan farqi

- **Brutto (umumiyl Samaradorlik)**: Bu ko'rsatkich ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonida olingan umumiyl natijalarni (yalpi daromad, umumiyl mahsulot) xarajatlarga nisbatan hisoblaydi. U barcha chiqimlarni hisobga olmaydi, shuning uchun aniq tahlil uchun yetarli emas.
 - **Sof samaradorlik (neto)**: Umumiyl daromaddan barcha xarajatlar (shu jumladan, investitsion, moliyaviy va ekspluatatsion xarajatlar) ayirilgan holda olinadigan foydaga asoslanadi. Aynan neto samaradorlik iqtisodiy tahlilda asosiy mezon sifatida e'tirof etiladi.
 - **Nisbiy samaradorlik**: Bu ko'rsatkichlar ma'lum bir resurs (masalan, har bir ishchi kuchi, 1 so'm investitsiya yoki 1 gektar yer) bo'yicha hosil qilinadigan natijani ko'rsatadi. Ular asosan solishtirma tahlil va rejalshtirishda qo'llaniladi.
-

Neto iqtisodiy samaradorlikni baholashda quyidagi asosiy ko'rsatkichlar keng qo'llaniladi:

ROI (Return of Investment – Investitsiyalarning qaytimi):

$$ROI = \left(\frac{\text{Sof foyda}}{\text{Investitsiya qiymati}} \right) \times 100\%$$

Bu ko'rsatkich investitsiyadan olingan foyda darajasini foizda ifodalaydi.

NPV	(Net	Present	Value	-	Sof	joriy	qiymat)
-----	------	---------	-------	---	-----	-------	---------

$$NPV = \sum \left(\frac{R_t}{(1 + r)^t} \right) - I$$

bu yerda:

R_t – t-vaqtida olingan tushum,

r – diskont stavkasi,

t – vaqt,

I – boshlang'ich investitsiya.

Bu usul kelajakdagi kutilayotgan naqd tushumlarning joriy qiymatini hisoblashga asoslanadi.

Rentabellik koeffitsiyentlari (masalan, foydaning mahsulotga, sarmoyaga yoki aktivlarga nisbati):

Ushbu ko'rsatkichlar tahlil qilinayotgan faoliyatning daromad keltirish qobiliyatini baholaydi.

Masalan:

$$Rentabellik = \left(\frac{\text{Foya}}{\text{Xarajatlar yoki Aktivlar}} \right) \times 100\%$$

Bu ko'rsatkichlar orqali turli loyihalar yoki faoliyat turlarining iqtisodiy samaradorligi aniqlanib, eng foydali va maqsadga muvofiq variant tanlanadi.

Neto iqtisodiy samaradorlikning statistik jihatdan mohiyatini o'rGANADIGAN bo'lsak, resurslardan real foydalanish darajasini aks ettirib, chegirib tashlagan faqat yalpi natijani emas, xarajatlarni holdagi sof natijani ko'rsatadi. Iqtisodiy siyosat, byudjet xarajatlari va investitsiya rejalshtirishda **asosiy statistik indikator** sifatida ishlataladi hamda turli loyihalarni **solishtirish imkonini** beradi.

Namunaviy misol tarzida tushuntiradigan bo'lsak, agar 1 mldr so'm sarmoya qilingan loyihadan 1,4 mldr so'm daromad olinib, 1,1 mldr so'm xarajatlar sarflansa, sof foya 300 mln so'mni tashkil etadi. Statistik ko'rsatkich sifatida bu daromadlilik darajasini aniq ifodalaydi.

Ko'rsatkich	Miqdor
Loyihaga sarflangan investitsiya	1 000 mln so'm
Umumiyl daromad	1 400 mln so'm
Xarajatlar (ishlab chiqarish, xizmat)	1 100 mln so'm
Sof foya	300 mln so'm
Neto samaradorlik (ROI)	30%

Neto iqtisodiy samaradorlikni baholash — bu ishlab chiqarish yoki investitsiya faoliyatidan olingan sof natijani aniqlash va tahlil qilish jarayonidir. Bu baholash iqtisodiy tahlilning eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, resurslardan foydalanganlik darajasi, investitsiyalarning qaytimi va loyihaning iqtisodiy maqsadga muvofiqligini aniqlashga yordam beradi. Ushbu baholashda bir nechta yondashuv va metodlardan foydalilanildi: statistik va dinamik tahlillar, investitsion baholash usullari hamda xarajat-foyda tahlili (CBA).

Statistik va dinamik tahlillar

Statistik tahlil bir vaqt kesimidagi neto samaradorlikni miqdoriy ko‘rsatkichlar asosida baholaydi. Masalan, bir yillik ishlab chiqarishdan olingan foyda va bu foyda uchun qilingan xarajatlar solishtiriladi. Statistik tahlil, ayniqsa, sanoat va qishloq xo‘jaligi kabi sohalarda neto foydalilik darajasini aniqlashda keng qo‘llaniladi.

Dinamik tahlil esa vaqt o‘tishi bilan neto samaradorlik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishini o‘rganadi. Bu usul yordamida loyiha yoki korxonaning barqarorligi, rentabellikning pasayishi yoki oshishi, investitsion risklar haqida xulosa chiqarish mumkin. Dinamik tahlil trendlar, o‘sish sur’atlari va yillik taqqoslashlar orqali amalga oshiriladi.

Neto samaradorlikni investitsion loyihalar kesimida tahlil qilishda quyidagi asosiy metodlar qo‘llaniladi:

1. Diskontlangan to‘lov muddati (DPB – Discounted Payback Period)

Bu usulda investitsiya qaytimi muddati hisoblab chiqiladi, lekin naqd pul tushumlari bozor sharoitidagi vaqt qiymati (diskont) asosida joriy qiymatga keltiriladi. Loyihaning o‘zini qoplash muddati qancha qisqa bo‘lsa, u shunchalik xavfsiz va samaraliroq hisoblanadi.

2. Ichki rentabellik normasi (IRR – Internal Rate of Return)

IRR — bu loyihadan olinadigan foyda stavkasi bo‘lib, unda sof joriy qiymat (NPV) nolga teng bo‘ladi. IRR investorlar tomonidan talab etilayotgan minimal daromadlilikdan yuqori bo‘lsa, loyiha maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

3. Rentabellik indeksi (PI – Profitability Index)

PI – bu investitsiyaga nisbatan olinadigan foydaning darajasi.

Xarajat-foyda tahlili (CBA – Cost-Benefit Analysis)

Xarajat-foyda tahlili neto samaradorlikni baholashda keng qo‘llaniladigan universal usul bo‘lib, loyiha yoki faoliyat natijasida kutilayotgan foydalar va amalga oshirish xarajatlari pul ko‘rinishida baholanadi. Bu tahlilda nafaqat moliyaviy foyda, balki ijtimoiy va ekologik ta’sirlar ham inobatga olinadi.

CBA usulining asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Loyihaning barcha xarajatlarini aniqlash (kapital, operatsion, texnik, ijtimoiy);
2. Kutilayotgan barcha foydalarni hisoblash (naqd tushumlar, samaradorlik, qo‘sishimcha ish o‘rinlari, ekologik yaxshilanishlar va h.k.);
3. Foyda va xarajatlar o‘rtasida nisbatni hisoblash;
4. Agar umumiyligi foyda umumiyligi xarajatlardan ortiq bo‘lsa, loyiha samarali hisoblanadi.

Neto samaradorlikka ta’sir etuvchi omillar

Neto iqtisodiy samaradorlik ko‘plab ichki va tashqi omillar ta’sirida shakllanadi. Ularning har biri ishlab chiqarish samaradorligi va sof foyda darajasini belgilovchi asosiy mezonlar hisoblanadi. Quyida bu omillar ikki asosiy guruhda bayon qilinadi:

Ichki omillar korxonaning o‘z faoliyati bilan bevosa bog‘liq bo‘lib, ular korxona tomonidan nazorat qilinishi va boshqarilishi mumkin. Asosiy ichki omillar quyidagilardan iborat:

Xarajatlar: Korxonaning ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish jarayoniga sarflaydigan moddiy, mehnat va moliyaviy resurslar. Xarajatlarni kamaytirish neto foydani bevosa oshiradi.

Boshqaruv sifati: Tashkiliy tuzilma, menejment darajasi va qaror qabul qilish samaradorligi korxona samaradorligiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Yuqori boshqaruv sifati resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Innovatsiyalar: Yangi texnologiyalar, ishlab chiqarish usullari va mahsulotlar samaradorlikni oshiradi. Innovatsion yondashuv raqobatbardoshlikni kuchaytiradi va xarajatlarni kamaytiradi.

Tashqi omillar korxonaning nazoratidan tashqarida bo‘lib, ular makroiqtisodiy muhit va davlat siyosatiga bog‘liq. Asosiy tashqi omillar quyidagilar:

Iqtisodiy siyosat: Davlat tomonidan olib boriladigan fiskal va monetar siyosatlar (soliq imtiyozlari, subsidiya siyosati va boshqalar) investitsion muhitga ta’sir qiladi.

Bozor sharoitlari: Mahsulotga bo‘lgan talab, raqobat darajasi, narxlarning o‘zgaruvchanligi korxona daromadlari va foydasiga ta’sir ko‘rsatadi.

Soliq tizimi: Soliq stavkalari va imtiyozlar so‘f foydaga bevosa ta’sir qiladi. Og‘ir soliq yuki neto samaradorlikni pasaytiradi, imtiyozli tizim esa uni oshiradi.

Neto samaradorlikni oshirish yo‘llari

Korxona xarajatlarini tahlil qilish, keraksiz sarf-xarajatlarni bartaraf etish va ishlab chiqarish jarayonini tejamkorlashtirish orqali neto foydani sezilarli darajada oshirish mumkin. Bunga quyidagilar orqali erishiladi: Resurslardan tejamli foydalanish; Mahsuldorlikni oshirish; Ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish.

Soliq rejalashtirish qonun doirasida yuritiladigan amaliyot bo‘lib, uning asosiy maqsadi – korxona foydasini optimal soliqqa tortish asosida oshirishdir. Asosiy vositalari:

- Soliq imtizozlaridan foydalanish;
- Amortizatsiya siyosatini to‘g‘ri yuritish;
- Soliq to‘lovlarini oldindan rejalashtirish.

Neto samaradorlikka ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni boshqarish orqali korxonaning iqtisodiy barqarorligi va rentabellik darajasini oshirish mumkin. Xarajatlarni tahlil qilish, innovatsiyalarni joriy etish, soliq va risklarni boshqarish orqali neto iqtisodiy samaradorlikni izchil ravishda oshirish mumkin. Bu jarayon doimiy monitoring va strategik rejalashtirishni talab qiladi.



Mazkur indeks mamlakatning statistik salohiyati, erishayotgan yutuqlari va milliy statistika tizimini rivojlantirish borasida olib borayotgan islohotlari natijalarini aks ettiradi.

Xulosa: Neto iqtisodiy samaradorlik — korxona yoki investitsion loyihanining real iqtisodiy foydasini ifodalovchi muhim ko‘rsatkichdir. U sof foyda asosida hisoblanib, resurslardan qay darajada samarali foydalanganlikni, investitsiyalarning qanchalik foydali bo‘lganini va umumiy iqtisodiy natijani aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston iqtisodiyotida so‘nggi yillarda investitsiya hajmi ortib,

ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida yuqori o‘sish sur’atlari qayd etilmoqda. Bu esa neto samaradorlik darajasining ortishiga olib kelmoqda. Mazkur mavzuni o‘rganish jarayonida neto samaradorlikning nazariy asoslari, uni baholash usullari, asosiy ko‘rsatkichlari (NPV, ROI, IRR, PI), shuningdek, unga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar chuqur tahlil qilindi. Statistik va dinamik tahlillar, xarajat-foyda (CBA) metodikasi orqali neto samaradorlikni aniqlash mumkinligi isbotlandi. Davlat darajasida iqtisodiy siyosat, soliq yengilliklari va investitsion muhitni yaxshilash orqali ham neto samaradorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatish mumkin. Yakuniy xulosalardan biri shuki, neto iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun korxonalar quyidagi yo‘llarni tanlashi lozim:

- Xarajatlarni optimallashtirish;
- Soliq rejalashtirishni samarali olib borish;
- Innovatsion texnologiyalarni joriy etish;
- Risklarni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish.

Shunday qilib, neto iqtisodiy samaradorlikni chuqur tahlil qilish va uni oshirish strategiyalarini ishlab chiqish O‘zbekiston iqtisodiyot:iga barqarorligi hamda raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar

O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. "2024-yil yakunlari bo‘yicha iqtisodiy ko‘rsatkichlar". – <https://stat.uz>

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hisobotlari. "2024-yil investitsiya faoliyati sharhi", Toshkent, 2025.

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi. “Agroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili – 2024”, rasmiy hisobot.

(<https://www.world-exchanges.org/our-work/statistics>)

elar.urfu.ru/bitstream/10995/95287/1/978-5-7996-...

<https://www.sravni.ru/enciklopediya/info/bankovskie-operacii/>